Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical and practical aspects of using marketing strategies within modern logistics systems. The main objective of the study is to determine the role of marketing approaches in improving the efficiency of logistics processes, as well as to assess the impact of digital logistics, customer-oriented services, and branding elements. The results indicate that the integrated and systematic application of marketing strategies plays a crucial role in enhancing the competitiveness of logistics companies.

Key words: logistics, marketing, marketing strategies, innovative logistics solutions, efficiency of logistics services, customer-oriented approach, digital transformation, transport.

Аннотация. В статье с научной точки зрения анализируются теоретические и практические аспекты использования маркетинговых стратегий в современной логистической системе. Основной целью исследования является определение роли маркетинговых подходов в повышении эффективности логистических процессов, а также оценка влияния цифровой логистики, клиентоориентированных услуг и элементов брендинга. Полученные результаты свидетельствуют о том, что комплексное и системное применение маркетинговых стратегий способствует повышению конкурентоспособности логистических компаний.

Ключевые слова: логистика, маркетинг, маркетинговые стратегии, инновационные логистические решения, эффективность логистических услуг, клиентоориентированный подход, цифровая.

KIRISH

Zamonaviy kompaniyalarning marketing faoliyatini boshqarishda logistika strategiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Logistika tizimi mahsulotlarni taqsimlash jarayonida savdo faoliyati uchun logistika strategiyasi vositalaridan foydalanish, savdo to'siqlarini bartaraf etish hamda mahsulotlarni yetkazib berish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvchan harakatlarini qo'llab-quvvatlab, mijozlar bilan o'zaro munosabatlar samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, logistika sanoati xalqaro savdoning asosiy tayanch sohalaridan biri hisoblanadi. Xususan, dunyo bo'ylab logistika sanoati 2021-yilda 8,4 trillion yevrodan ortiq qiymatga ega bo'lgan bo'lsa, 2027-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 13,7 trillion yevrodan oshishi prognoz qilinmoqda. Shunga



mos ravishda, global logistika xarajatlari 2020-yilda 9 trillion AQSh dollariga yetib, hozirgi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining (YalIM) 10,7 foizini tashkil etmoqda [1]. Mazkur ko'rsatkichlar jahon miqyosida korxonalarning logistika faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish masalasining dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

Keltirilgan raqamlar logistika jarayonlarini optimallashtirishda marketing strategiyalarining ahamiyatini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki logistika faoliyatida ilg'or marketing yondashuvlaridan samarali foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda, mijozlar talablari va bozor dinamikasiga tezkor moslashishda, shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bois, zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki global bozor sharoitida korxonalar barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir firma yoki kompaniya mavjud sharoitlar, imkoniyatlar, maqsad va vazifalar hamda resurs manbalarini hisobga olgan holda, o'ziga xos individual faoliyat yuritish uslubiga ega bo'lishi lozim [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, logistika va marketingning integratsiyalashuvi kompaniyalarning bozor raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Germaniyalik olimlar va amaliyotchilar logistikani tegishli axborot oqimlari bilan bir qatorda xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar hamda tayyor mahsulotlarning samarali va tejamkor harakatlanishini rejalashtirish, boshqarish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayoni sifatida ta'riflaydilar [3].

Ingliz tadqiqotchisi M. Kristofer logistikaning ahamiyatini nafaqat alohida firma darajasida, balki butun sanoat miqyosida ham yuqori baholaydi. Uning fikriga ko'ra, logistika sanoatning umumiy iqtisodiy jarayonini tashkil etuvchi muhim tizim bo'lib, korxonalar va omborlarning hududiy joylashuvi bilan bog'liq masalalarni ham qamrab olishi lozim [4].

Bowersox va Closs 2013-yilda logistika xizmat sifatini "mijoz uchun vaqt va joy qiymatini yaratish mexanizmi" sifatida talqin qilib, uning marketing strategiyalaridagi muhim rolini asoslab bergan. Chopra va Meindl esa 2019-yilda raqamli logistika orqali kompaniyalar mijozlarga moslashtirilgan qiymat takliflarini shakllantirishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Mazkur manbalar zamonaviy logistika marketing strategiyalarining mijozga yo'naltirilganlik, brend imiji va raqamli innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Marketing logistikasining missiyasini strategik boshqaruv tizimi doirasida ko'rib chiqish mumkin bo'lib, u ierarxik tuzilmaning eng yuqori pog'onasida joylashadi. Ushbu ierarxiyaga protseduralar, rejalashtirish, vazifalar, kichik maqsadlar, strategik maqsadlar va umumiy maqsadlar kiradi, ularning barchasi yagona missiyaga bo'ysunadi. Logistika missiyasi esa kerakli mahsulotni, axborotni kerakli joyga, kerakli vaqtda hamda minimal xarajatlardan yetkazib berishni ta'minlashdan iboratdir [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda zamonaviy logistika sohasida marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash maqsadida kombinatsiyalashgan tadqiqot metodlari qo'llanildi. Dastlab, marketing logistikasiga oid mavjud nazariy yondashuvlar va ilmiy manbalar tahlil qilindi. Mazkur bosqichda marketing strategiyalari, ta'minot zanjiri integratsiyasi, raqamli logistika hamda mijozga yo'naltirilgan xizmat kontseptsiyalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar va ilg'or amaliy tajribalar tizimli hamda chuqur o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy qismi STL Trucking LLC logistika kompaniyasi faoliyati misolida olib borildi. Ushbu kompaniyaning tanlanishiga uning AQShda faoliyat yurituvchi kichik va o'rta segmentga mansub logistika operatori ekani hamda marketing strategiyalarini logistika operatsiyalari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha real amaliy tajribaga egaligi asosiy omil bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

STL TRUCKERS LLC logistika kompaniyasining ichki va tashqi muhitini kompleks baholash maqsadida amalga oshirilgan SWOT tahlil natijalari keltirilgan. Jadval orqali kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, tashqi muhitdan kelib chiqadigan imkoniyatlar va xavf-xatarlar tizimli ravishda aniqlangan. Ushbu tahlil kompaniyaning marketing strategiyalarini takomillashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini belgilash uchun analitik asos bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).



1-jadval. STL TRUCKERS LLC kompaniyasining SWOT tahlili

KUCHLI TOMONLARI	ZAIF TOMONLARI
1. Katta avtopark (579 ta yuk mashinasi, 1000 tirkama) 2. FTL, LTL, tezkor va sovutilgan transport xizmatlari 3. Moslashuvchan tarif siyosati 4. Texnologik monitoring tizimlari mavjudligi 5. Keng geografik qamrov	1. Raqamli xizmatlar va mijozlar interfeysining cheklanganligi 2. Ijtimoiy tarmoqlarda cheklangan faoliyat 3. Xizmatlar diversifikatsiyasining yetishmasligi 4. Kadrlar siyosati va haydovchilarni jalb qilish strategiyasining ochiqligi 5. Texnologik yangiliklarning yetishmasligi 6. Texnologik yangiliklarning yetishmasligi 7. Bozor segmentatsiyasi to'liq aniqlanmagan
IMKONIYATLARI	XAVF-XATAR
1. Raqamli logistika xizmatlariga o'tish 2. Xalqaro bozorga chiqish 3. Yashil logistika va ekologik transport 4. Ko'p tarmoqli servislar qo'shish 5. Marketing faoliyatini kuchaytirish	1. Logistika sohasidagi kuchli raqobatchilar 2. Yangi yo'nalishlar va xizmat turlarini joriy etish 3. Yoqilg'i narxlarining o'zgaruvchanligi 4. Korxonalar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish 5. Valyuta kurslarining keskin o'zgarishi 6. Ijtimoiy tarmoqlarda faol PR kampaniyalar yuritish 7. Transport va yo'l infratuzilmasidagi muammolar 8. Sug'urta va GPS xizmati orqali qo'shimcha daromad manbai 9. Kadrlar aylanishi va tajribali haydovchilar yetishmasligi

Tadqiqotning muhim jihatlardan biri sifatida SWOT tahlili STL TRUCKERS LLC kompaniyasining ichki resurslari hamda tashqi bozor omillarini tizimli ravishda baholash imkonini berdi. Zaif jihatlari sifatida aniqlangan texnologik infratuzilmaning yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi, brendning bozordagi nisbatan past tanilganligi hamda malakali marketing mutaxassislarning cheklanganligi kompaniya raqobatbardoshligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida baholanadi. Mazkur jihatlarni bartaraf etish strategik rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, brend identifikatsiyasini mustahkamlash va marketing yo'nalishi bo'yicha malakali kadrlarni jalb etish orqali kompaniya mavjud cheklovlarni samarali rivojlanish imkoniyatlariga aylantirishi mumkin.

Kompaniyaning tashqi muhitdagi imkoniyatlari ham faol diversifikatsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, raqamli logistika xizmatlarini, jumladan GPS monitoring, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan buyurtma tizimlarini joriy etish xizmat sifati va operatsion samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro yo'nalishlarning kengaytirilishi (Kanada va Meksika bozorlariga chiqish), ekologik toza transport vositalaridan foydalanishga o'tish, 3PL xizmatlari va ombor logistikasini rivojlantirish kompaniya uchun yangi daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Marketing strategiyalarini kuchaytirish, xususan raqamli reklama, SEO va video kontent orqali bozordagi ko'rinishchanlikni oshirish ham barqaror o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, kompaniya faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim tashqi tahdidlar ham mavjud. Yangi raqobatchilarning bozorga kirib kelishi innovatsion xizmatlar va moslashuvchan tarif siyosati orqali raqobat muhitining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, transport infratuzilmasidagi ayrim cheklovlar, xalqaro bozorlarda valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, yuklarni yetkazib berish jarayonidagi ehtimoliy xavflar, sug'urta xarajatlarning oshishi hamda yoqilg'i narxlarining barqaror emasligi kompaniyaning operatsion barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida baholanadi. Mazkur holatlar risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishni va xizmat turlarini diversifikatsiya qilishni taqozo etadi.

STL TRUCKERS LLC logistika kompaniyasini rivojlantirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishdan avval, kompaniyada amalda qo'llanilayotgan marketing yondashuvlari va ularning mavjud jihatlarni kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonda PESTEL tahlilidan faol foydalaniladi.

PESTEL tahlilidan foydalanishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: strategik rejalashtirish doirasida uzoq muddatli qarorlar qabul qilishda tashqi omillarni hisobga olish imkonini berishi; bozor tahlili orqali yangi bozorlarga kirishdan oldin u yerdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni baholash; tashqi xavf-xatarlarni oldindan aniqlash orqali risklarni kamaytirish; shuningdek, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga mos innovatsion strategik yo'nalishlarni belgilash imkoniyatini yaratishi (2-jadval).



2-jadval. STL TRUCKERS LLC kompaniyasining PESTEL tahlili

№	Omil	Izoh
1	Siyosiy (Political)	AQSH transport qonunlari, yo'l soliqlari va hukumatning logistika siyosati kompaniyasining marshrut va xarajatlarga bevosita ta'sir qiladi
2	Iqtisodiy (Economic)	Yoqilg'i narxlar o'zgaruvchanligi va inflyatsiya – kompaniya yuk tashish xarajatlari va narx strategiyasiga ta'sir etadi
3	Ijtimoiy (Social)	Yosh mijozlar ekologik va tez yetkazib berishga ustuvorlik beradi, haydovchi yetishmovchiligi esa xizmat sifatiga xavf tug'diradi
4	Texnologik (Technological)	GPS tracking, avtomatlashtirilgan dispatcherlik, mobil ilovalar va IoT texnologiyalari xizmatlarni soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi
5	Ekologik (Environment)	Ob-havo sharoitlari, ayniqsa qishloq yo'llaridagi yomon iqlim (qor, muz) yuk kechikishlariga olib keladi. Eko-talablar ortib bormoqda
6	Huquqiy (legal)	FMCSA va DOT qonunlari, yuk og'irligi cheklovlari, haydovchilarning ish vaqti normasi – bularning buzilishi yirik jarimalarga olib keladi

Siyosiy omillar logistika sohasida to'g'ridan-to'g'ri huquqiy va operatsion cheklovlarni belgilaydi. STL TRUCKERS LLC kabi kompaniyalar AQSh Transport Departamenti (DOT) hamda Federal Motor Carrier Safety Administration (FMCSA) tomonidan belgilangan me'yoriy talablar asosida faoliyat yuritadi. Jumladan, yuk mashinalarining ruxsat etilgan og'irligi va yo'l harakati qoidalariga rioya qilinmasligi kompaniya uchun sezilarli miqdordagi moliyaviy sanksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli marshrutlarni rejalashtirish jarayonida shtatlararo ruxsatnomalar va yo'l to'lovlari siyosiy omil sifatida inobatga olinadi.

Iqtisodiy omillar logistika kompaniyalari faoliyatiga yoqilg'i narxlar, inflyatsiya darajasi, ishchi kuchi xarajatlari va valyuta kurslaridagi o'zgarishlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar xizmat narxlarini shakllantirish, foyda marjasi va operatsion samaradorlikka bevosita bog'liqdir. Masalan, 2024-yilda AQShda dizel yoqilg'isi narxining oshishi STL TRUCKERS LLC kompaniyasini marshrutlarni optimallashtirish va yoqilg'i sarfini kamaytirishga yo'naltirilgan choralarni ko'rishga undadi.

Ijtimoiy omillar logistik xizmatlarga bo'lgan talabning sifat jihatdan o'zgarib borishini aks ettiradi. Zamonaviy mijozlar tezkorlik, yuklarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati, ekologik xavfsizlik va xizmat sifati kabi mezonlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, haydovchilar tanqisligi, mehnat sharoitlari hamda kasbning ijtimoiy mavqei logistika kompaniyalari uchun muhim ijtimoiy omillar hisoblanadi. STL TRUCKERS LLC haydovchilarni jalb etish maqsadida rag'batlantiruvchi bonus tizimlarini joriy etgan bo'lib, ekologik yuk tashuvlarga bo'lgan qiziqish kompaniyaning "yashil logistika" tamoyillariga o'tishiga turtki bermoqda.

Texnologik omillar logistika sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim manbai hisoblanadi. GPS kuzatuv tizimlari, IoT qurilmalar, sun'iy intellekt asosida rejalashtirish, mobil ilovalar va CRM tizimlari logistika jarayonlarini soddalashtirib, ularning samaradorligini oshiradi. STL TRUCKERS LLC yuklarning real vaqt rejimidagi holatini mijozlarga taqdim etish maqsadida GPS asosidagi monitoring tizimini joriy qilgan bo'lib, bu mijozlar ishonchini mustahkamlash va xizmat sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ekologik omillar transport kompaniyalari faoliyatiga iqlim o'zgarishlari, ob-havo sharoitlari hamda barqaror logistika talablari orqali ta'sir ko'rsatadi. Mijozlarning karbon chiqindilari past bo'lgan, energiya tejamkor tashuv xizmatlariga bo'lgan talabi tobora ortib bormoqda. Masalan, 2023-yil qish mavsumida Indiana va Ogayo shtatlarida kuzatilgan kuchli qor bo'ronlari STL TRUCKERS LLC yuklarining yetkazib berilishida 36 soatlik kechikishlarga sabab bo'lgan.

Huquqiy omillar logistika sohasida barcha faoliyatning mehnat qonunchiligi, yuk tashish regulyatsiyalari, haydovchilarning ish vaqti me'yorlari hamda hujjat yuritish standartlariga qat'iy rioya etilishini talab qiladi. Ushbu talablarga amal qilinmasligi kompaniya uchun moliyaviy va imidjy risklarni yuzaga keltiradi. STL TRUCKERS LLC haydovchilarning ish vaqtini nazorat qilish maqsadida ELD (Electronic Logging Device) texnologiyasidan foydalanadi. Mazkur tizim FMCSA talablariga muvofiq ishlab, qonunchilik buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

PESTEL tahlili kompaniyaning amaldagi marketing strategiyalarini tashqi muhit omillari bilan bog'liq holda baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi (3-jadval).



3-jadval. STL TRUCKERS LLC kompaniyasining marketing strategiyalari va PESTEL tahlili orqali aniqlangan muammolar tasnifi

No	Marketing strategiyasi	Tasnifi	Muammolar (PESTEL asosida)
1	Fleet-reklama (yuk mashinalaridagi brend yozuvlari)	Brendni yo'llarda targ'ib qilish va visual ishonch yaratish	Texnologik jihatdan oson, ammo reklamani real samaradorligini o'lchash qiyin
2	Ishga yollash uchun "Referral" tizim (haydovchi tavsiyasi)	Mavjud haydovchi orqali yangi xodimlarni jalb qilish	Ijtimoiy omillar-haydovchilar kam, tavsiyalargatayanish barqaror emas
3	Yirik ishlab chiqaruvchilar bilan B2B kontraktlar	Doimiy ish beruvchilar bilan uzoq muddatli sheriklik	Iqtisodiy va siyosiy sharoitda B2B bitimlar sekin tasdiqlanadi
4	You Tube va Instagram reels orqali video marketing	Raqamli platformada xizmatni ko'rsatish, mijozlar ishonchini oshirish	Kontent ishlab chiqarish xarajatli, texnik sifat va algoritmlar muhim
5	Email orqali yuk statusi va billing xabarlar	Raqamli xizmatlarning funksional qismi, mijozlarga qulaylik	Texnologik nosozliklar va noto'g'ri billing mijoz ishonchiga putur yetkazishi mumkin
6	Linkedin orqali logistika mutaxassislarini jalb qilish	Mutaxassislar bilan B2B tarmoqlar orqali bog'lanish	Mutaxassislar yetishmasligi va kuchli raqobat mavjud
7	Ko'rgazmalarda qatnashish (truck Expo, Logistics Summit)	Brend tanitish, sherik va mijozlar topish	Ekologik va siyosiy sababli ko'rgazmalar bekor qilinishi mumkin
8	Telefon orqali distribyutorlar bilan bevosita aloqa	Sotuvchilar tomonidan yirik mijozlarga bevosita chiqish	Huquqiy regulatsiyalar-suvuq qo'ng'iroqlarda maxfiylik talablari
9	Mijozlar portal (order tracking, billing, hujjatlar)	Raqamli platforma orqali xizmat soddaligi va shaffoflik	Mijozlar portalidan foydalanish uchun trening talab etiladi, texnik yordam zarur
10	Mobil ilova orqali haydovchilar va mijozlar aloqasi	Haydovchilar va mijozlar o'rtasida real vaqtli aloqa	Ob-havo va internet uzilishi sababli aloqa uzilishi mumkin

PESTEL tahliliga asoslangan holda STL TRUCKERS LLC kompaniyasining amaldagi marketing strategiyalarida mavjud muammolar va takomillashtirish talab etiladigan jihatlar aniqlab berildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda marketing strategiyalarini yanada samarali va moslashuvchan qilish maqsadida ularni rivojlantirish yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, amaliy takliflar ishlab chiqilib, kompaniyaning bozor sharoitlariga moslashuvi hamda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ilgari surildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalarini qo'llash korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanini tasdiqladi. STL TRUCKERS LLC faoliyati asosida amalga oshirilgan SWOT va PESTEL tahlillari kompaniya kuchli operatsion bazaga ega bo'lishiga qaramay, marketing va raqamli xizmatlar yo'nalishida yetarli darajada rivojlanmaganligini aniqlab berdi. Katta avtopark, keng geografik qamrov va transport imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, raqamli interfeyslar, brend tanilganligi hamda marketing kommunikatsiyalarining sust rivojlanganligi kompaniyaning qiymat taklifini to'liq shakllantirish imkoniyatini cheklamoqda.

Mazkur tahlillar marketing faoliyati tashqi omillarga yuqori darajada bog'liqligini ham ko'rsatadi. Xususan, siyosiy-huquqiy tartibotlar (DOT, FMCSA), iqtisodiy omillar (yoqilg'i narxlar, inflyatsiya) hamda ijtimoiy tendensiyalar (haydovchilar tanqisligi, ekologik talablarning ortishi) marketing strategiyalarining doimiy ravishda moslashtirib borilishini taqozo etadi. Ayniqsa, texnologik omillar — GPS monitoringi, mobil ilovalar, mijozlar portal va avtomatlashtirilgan dispetcherlik tizimlari — kompaniyada samarali marketing faoliyatini shakllantirishda muhim resurs sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kompaniyada amalda mavjud bo'lgan marketing strategiyalari (fleet-reklama, B2B hamkorliklar, raqamli video marketing, mijozlar portal va boshqalar) yetarli bo'lishiga qaramay, ular tizimli ravishda boshqarilmaydi va aniq o'lchov ko'rsatkichlari bilan mustahkamlanmagan. Bu holat marketing logistikasining asosiy tamoyili bo'lgan mijozga yo'naltirilganlikning to'liq ta'minlanmasligiga olib kelmoqda. Natijada marketingni logistika jarayonlari bilan chuqur integratsiya qilish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va bozor segmentatsiyasini aniq belgilash strategik ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda.



STL TRUCKERS LLC misolida aniqlangan zaif jihatlar, jumladan raqamli xizmatlarning cheklanganligi, marketing faoliyatining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi va bozor segmentatsiyasining aniq shakllanmaganligi, kompaniyaning strategik rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirmoqda. Shu bilan birga, GPS monitoring tizimlarini kengaytirish, mobil aloqa vositalarini rivojlantirish, mijozlar portalini takomillashtirish va raqamli marketing imkoniyatlaridan faol foydalanish kompaniya uchun yuqori qiymat yaratish salohiyatiga ega.

Tashqi xavf-xatarlar, jumladan yoqilg'i narxlarining o'zgaruvchanligi, raqobatchilar faolligining ortishi hamda transport infratuzilmasi bilan bog'liq muammolar marketing yondashuvlarining moslashuvchan, innovatsion va risklarga chidamli bo'lishini talab etadi.

Umuman olganda, logistika jarayonlarida marketing strategiyalarini takomillashtirish mijozlar sodiqligini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va kompaniyaning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.statista.com/> – xalqaro statistik ma'lumotlar platformasi.
2. Kotler F., Keller K. L. Marketing menejmenti. 14-nashr. – Sankt-Peterburg, 2014.
3. Logistika: o'quv qo'llanma / Tairova M. M., Abdulloev A. J. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2020. – 128 b., 6-bet.
4. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management: Strategies for Reducing Costs and Improving Services. – UK: Pitman Publishing, 1992.
5. Idrisov Sh. A. Marketingovaya logistika: o'quv qo'llanma. – Maxachkala: Format, 2017-yil. – 286 b., 33-bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>